

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA MAS’ULIYAT HISSINI SHAKLLANTIRISH JARAYONI

Tojiyeva M.G.

Kimyo Toshkent xalqaro universiteti Samarqand filiali “Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va metodikasi” magistri

Gulnozatojiyeva76@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda mamlakatimizda ta’lim xizmatlari, uning rivojlanish qolaversa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mas’uliyat hissini shakllantirish jarayoni muallif tomonidan keng yoritib berilgan hamda taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so’zlar: maktab ta’limi, boshlang‘ich sinf, ta’lim xizmatlari, mas’uliyat hissi.

Ijtimoiy-falsafiy va pedagogik ta’limot g‘oyalariga ko‘ra har qanday ijobiy sifatning unga qarama-qarshi bo‘lgan salbiy ko‘rinishi mavjuddir. Shu nuqtai nazardan ijtimoiy munosabatlarni tashkil etishda “mas’uliyat hissiga egalik”ning antonimi sifatida “mas’uliyatsizlik” ham ko‘zga tashlanadi. Manbalarda ushbu tushuncha “mas’uliyatsiz munosabat”[1] sifatida izohlangan. Demak, mas’uliyatsizlik mohiyatiga ko‘ra biror ish, xatti-harakatning oqibati, natijasi uchun javobgarlikni his qilmaslikni anglatadi. Ma’lum xatti-harakatni amalga oshirishdagi mas’uliyat bevosita o‘yin va mehnat jarayonini tashkil etishda ishtirokchi sifatida shaxs zimmasiga yuklatilgan burchni bajarishni anglatadi. Boshlang‘ich ta’lim tizimida o‘quvchilarning o‘yin va mehnat jarayoniga nisbatan mas’uliyatli yondoshuviga erishish asosida ularning hayotida muhim o‘rin egallagan o‘qish faoliyatining samarali kechishi ta’milanadi. Binobarin, bu vaziyatda ularda har qanday faoliyatni tashkil etishga bo‘lgan mas’uliyatning dastlabki elementlari shakllanadi. O‘quvchilarda o‘yin, mehnat va tengdoshlari bilan o‘zaro munosabatda mas’uliyat elementlarini shakllantirish ularning navbatdagi, tobora murakkablik kasb

etuvchi yosh davrlarida yetarli darajada mas'uliyatli bo'lishlarida poydevor bo'lib xizmat qiladi. Muayyan kasbiy faoliyatni bajarish bo'yicha shaxs zimmasidagi mas'uliyat ana shu poydevor negizida yuzaga keladi. Kasbiy faoliyat – bu shaxs zimmasiga yuklatilgan ijtimoiy-majburiy faoliyatning yorqin ko'rinishlaridan biri bo'lib, uni qay darajada samarali yo'lga qo'yilishi, eng avvalo, jamiyat rivoji va inson kamolotini ta'minlashga xizmat qiladi. Har bir shaxs u yoki bu darajada ma'lum guruh yoki uning a'zolari bo'lgan kishilar oldida mas'uliyatlidir. Zero, u umumi maqsad, ma'lum qiziqishlar, ijtimoiy manfaatlar va o'zaro psixologik birlik asosida birlashgan mikro va makro guruahlarning a'zosi hisoblanadi. Shaxs dastlab o'zi tug'ilib o'sgan oilaning a'zosidir. Keyinchalik u umumi maqsad va yosh xususiyatlariga ko'ra tashkil etilgan guruh (bolalar bog'chasi, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari, oliy ta'lim muassasalari, sinf (umumi o'rta ta'lim mabtablarida), jamoa (ishlab chiqarish tashkilotlari, mehnat jamoalari)ning a'zosi sifatida o'yin, mehnat va ijtimoiy munosabatga oid xatti-harakatlarni amalga oshiradi. Jamiyat fuqaroligi shaxsning ijtimoiy maqomini belgilovchi muhim omil bo'lib, ana shu omil uning zimmasiga ma'lum ijtimoiy faoliyatni yo'lga qo'yishda ayrim xatti-harakatlarning tashkil etilishini taqozo etadi. Shaxsning fuqaro sifatidagi mas'uliyati ko'proq uning yuridik munosabatlar ishtirokchisi ekanligida ko'rinish, ma'muriy, fuqarolik va jinoiy-huquqiy munosabatlar bo'yicha qonunbuzarliklarga nisbatan javobgarligi, mehnat intizomi qoidalariga rioya etmaslik, shuningdek, yetkazilgan zararning moddiy va ma'naviy qimmatga egaligi uchun qabul qilingan mezonlari bo'yicha baholanadi.

"Mas'uliyatni shakllantirish – bu o'quvchilarda o'z-o'zini boshqarishni, intizomni, o'ziga o'zi baho berishni shakllantirish, ularni jamoa intizomiga mustaqil bo'ysunishga, burchga sadoqatli bo'lishga o'rgatish"[2], ana shu maqsadda aniq pedagogik faoliyatni tashkil etishdir.

O'quvchilarda "o'qishga mas'uliyat hissini shakllantirish tarbiyaviy ishni uch bosqichga bo'lib amalga oshirishni taqozo etadi va jarayon samaradorligini ta'minlaydi:

1-bosqich – bolalar bilan o'zaro samimiy, o'zaro hurmatga asoslanuvchi munosabatlarini tashkil etish.

2-bosqich – bolalar bilan o‘quv faoliyatini tashkil etishda ishchanlik ruhidagi o‘zaro munosabatni o‘rnatish, ularda o‘qishga bo‘lgan qiziqishni rivojlantirish.

3-bosqich – bolalar bilan o‘quv faoliyatida mustahkam hamkorlik qilish va bu hamkorlik orqali asta-sekin mustaqil ravishda o‘quv vazifalarini bajarish, bolalarga o‘qishga bo‘lgan mas’uliyat hissini mashq qildirish yo‘llarini o‘rgatish” [2, 36].

Ayni o‘rinda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mas’uliyat hissini shakllantirish jarayonining umumiyligi mohiyatini olib berish maqsadga muvofiqdir.

O‘yin maktabgacha yoshdagi bolalarda bo‘lgani kabi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari faoliyatining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. O‘yinni tashkil qilish va unda ishtirok etish o‘quvchilarda jamoa bo‘lib harakatlanish, jamoa oldida u yoki bu majburiyatni bajarish, jamoaning obro‘sni uchun kurashish, guruhdoshlari yoki tengdoshlariga yordam berish, vaziyatni to‘g‘ri baholay bilish, muvaffaqiyat qozonish uchun intilish kabi sifatlarni tarbiyalashda alohida ahamiyatga ega. O‘yinda ishtirok etish ixtiyoriy xarakterga ega bo‘lganligi uchun ko‘p holatlarda ishtirokchi mas’uliyati stixiyali tarzda shakllanadi. O‘yin davomida o‘quvchi tomonidan hayotiy tajribaning orttirilishi va ma’naviy-axloqiy sifatlarning hosil bo‘lishida uning borliqni anglash darajasi hamda psixologik xususiyatlari muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilarda “mas’uliyat hissiy-shaxsiy xislat sifatida ibridoiy xarakterga ega. Bu yoshda ushbu xislat faqat shakllanadi. Qat’iy ishonchga aylanib ulgurmeydi. ... O‘qishga bo‘lgan mas’uliyat hissi ko‘proq taqlidiy xarakterga ega bo‘ladi. Bolalarda o‘qishga mas’uliyat hissining namoyon bo‘lishi, o‘qishning ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatini tushunib yetgan holda emas, balki ota-onalar va o‘qituvchilarning talablari ana shunday bo‘lganligi uchundir” [2, 26]. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘yin mas’uliyati bir qadar barqarorlashgan bo‘lsa-da, uning tobora mustahkamlanishida pedagogik kuzatuvni o‘rnatish maqsadga muvofiqdir. Shu sababli darsda va sinfdan tashqari sharoitlarda didaktik hamda tarbiyaviy xarakterga ega o‘yinlardan foydalanish orqali o‘qituvchi o‘quvchilarning o‘yinga nisbatan mas’uliyatli yondoshuvlarini nazorat qilib borishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. Иккинчи жилд. Е – М. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – 671 б.
2. Ўқувчиларда ўқув фаолиятига масъулият ҳиссини тарбиялаш (Оилада ва синфдан ташқари вақтларда) //Тузувчилар: М.Ш.Алламуратова, Г.Жўрабоева. – Т.: ЎзПФИТИ, 1990. – 37 б.
3. Шодмонова Ш.С. Оилада кичик мактаб ёшидаги болаларни миллий қадриятлар асосида ахлоқий тарбиялашнинг педагогик асослари: Пед. фанл. номз. ... дисс. автореф. – Т.: 2001.
4. Mattiyev, I. B. (2023). PEDAGOGIK JARAYONLARNI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH. *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi*, 2(1), 812-815.
5. Mattiyev, I. B. (2024). Talabalarda madaniyat mazmunining invariantini o‘zlashtirganda subyektivlikka aylanish jarayonining mexanizmlari. *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi*, 3(1), 210-213.